



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI “O‘ZARXIV” AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I**

“O‘zarxiv” agentligi faoliyatida ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlarni axborot resurslarida joylashtirish va yangilab borish tartibini belgilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. “O‘zarxiv” agentligi faoliyatiga oid ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda – Ro‘yxat) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ro‘yxatga kiritilgan ma‘lumotlarni rasmiy veb-sayt, Ochiq ma‘lumotlar portali va boshqa axborot resurslariga joylashtirishning quyidagi tartibi o‘rnatilsin:

ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan har bir ma‘lumot mas‘ul tarkibiy bo‘linma (shaxs) tomonidan belgilangan shaklda, sifatli va to‘liq shakllantirib, ularni elektron shaklda Axborot texnologiyalari va arxiv xizmatlarini rivojlantirish bo‘limi (A.Turapov, A.Ziyatdinov), Direktorning matbuot kotibi (A.Aliyev), Ijro intizomi bo‘yicha bosh mutaxassisiga (D.Yusupov) taqdim etiladi;

taqdim etilgan barcha ma‘lumotlar shu kunning o‘zida mas‘ul bo‘lim (shaxs) tomonidan “**Ijro.gov.uz**” tizimiga kiritib boriladi;

Axborot texnologiyalari va arxiv xizmatlarini rivojlantirish bo‘limi (A.Turapov, A.Ziyatdinov), Direktorning matbuot kotibi (A.Aliyev) taqdim etilgan ma‘lumotlarning rasmiy veb-sayt, Ochiq ma‘lumotlar portali va boshqa axborot resurslariga belgilangan format va o‘lchamlarda joylashtirilishini ta‘minlaydi.

3. Mas‘ul bo‘lim (shaxs) tomonidan Ro‘yxatda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni Axborot texnologiyalari va arxiv xizmatlarini rivojlantirish bo‘limi (A.Turapov, A.Ziyatdinov), Direktorning matbuot kotibi (A.Aliyev), Ijro intizomi bo‘yicha bosh mutaxassisiga (D.Yusupov) taqdim etishning oxirgi muddati (ma‘lumotlarni yangilab borish muddati qonunchilik hujjatlarida aniq belgilangan holatlar bundan mustasno) quyidagi tartibda hisoblanadi:

doimiy (muntazam) yangilab boriladigan ma‘lumotlar – **bir sutkadan kechiktirilmay;**

har oyda yangilab boriladigan ma‘lumotlar – keyingi oyning **uchinchi sanasiga qadar;**

har chorakda yangilab boriladigan ma'lumotlar – har chorak yakunidan keyingi oyning **beshinchi sanasiga qadar**;

har yarim yillikda (har olti oylik) yangilab boriladigan ma'lumotlar – har olti oy yakunidan keyingi oyning **o'ninchi sanasiga qadar**;

har yillik (bir yilda bir marotaba) yangilab boriladigan ma'lumotlar – har yil yakunidan keyingi yilning **15-fevraliga qadar**.

4. "O'zarxiv" agentligi faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarning shakllari **2-24-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Rasmiy veb-sayt, Ochiq ma'lumotlar portali va boshqa axborot resurslarini yuritish, ma'lumotlarni ochiqlikni ta'minlashga oid qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartib-taomillar asosida (vab-manzil, format, o'lcham, shakl va boshqa talablar) joylashtirish (e'lon qilish) hamda davriy yangilab borishga Axborot texnologiyalari va arxiv xizmatlarini rivojlantirish bo'limi (**A.Turapov, A.Ziyatdinov**), Direktorning matbuot kotibi (**A.Aliyev**) mas'ul ekanligi qayd etilsin.

6. Ro'yxatda ko'rsatilgan ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqilishiga mas'ul etib belgilangan mas'ul xodimlar ularni o'z vaqtida, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hajmda, sifatli va to'liq shakllantirilish hamda Axborot texnologiyalari va arxiv xizmatlarini rivojlantirish bo'limi (**A.Turapov, A.Ziyatdinov**), Direktorning matbuot kotibiga (**A.Aliyev**), Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisiga (**D.Yusupov**) taqdim etilishiga mas'ul va shaxsiy javobgar etib belgilansin.

7. Ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etmagan yoki noto'g'ri ma'lumot taqdim qilgan tarkibiy tarmoq rahbar va xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilsin.

8. Direktorning matbuot kotibi (**A.Aliyev**):

"O'zarxiv" agentligining ochiqlikni ta'minlash sohasini doimiy muvofiqlashtirib borsin;

tahlillar va keng jamoatchilik fikrini o'rganish asosida rasmiy veb-saytda ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning ko'lamini kengaytirish, sifatini oshirish va dolzarbligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqsin hamda ularni amalga oshirish choralari ko'rsin;

"O'zarxiv" agentligi faoliyatiga oid ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqilishiga mas'ul etib belgilangan xodimlar tomonidan ma'lumotlarni Axborot xizmatiga taqdim etish tartibining buzilishi holatlari haqida munosabat bildirish yuzasidan rahbariyatga o'z vaqtida takliflarni kiritib borsin.

9. Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassis (**D.Yusupov**) mas'ul xodimlar tomonidan ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etilishi hamda "**Ijro.gov.uz**" tizimiga kiritilishini nazoratga olib umumlashtirsin, natijalari bo'yicha Agentlik direktoriga muntazam axborot berib borsin.

10. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



U.Yusupov

Toshkent shahri,
2024-yil 8-fevral,
17-son

“O‘zarxiv” agentligining
2024-yil 8-fevraldagi
17-son buyrug‘iga 1-ilova

“O‘zarxiv” agentligi faoliyatida ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar
RO‘YXATI

№	E‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar toifasi	Ma‘lumot joylashtiriladigan axborot resurslari	Taqdim etish va yangilab borish muddati*	Ishlab chiqish va e‘lon qilish uchun mas‘ullar*	Ijro etilishi ustidan nazoratini ta‘minlashga mas‘ul
1.	Davlat organlari va tashkilotlarining o‘z faoliyatiga oid hisoboti (<i>davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma‘lumotlar bundan mustasno</i>) (2-ilova)	Rasmiy veb-sayt	Har yili 1-martga qadar	Sh.Yaminov, Sh.Tursunbayev, A.Aliyev, Sh.Xojiboyev, Sh.Raximov, L.Mirzayev, A.Turapov, D.Dadayeva, S.Yunusxodjayeva	Sh.Sadikov, D.Yusupov
	O‘z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqida xabar berish (<i>axborot resurslarida e‘lon qilish</i>)	Rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar	Har yili 10-martga qadar	A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
	O‘z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinishiga oid o‘tkazilgan matbuot anjumanlari haqidagi ma‘lumotlarni e‘lon qilish	Rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar	Har yili 1-aprelga qadar	A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
4.	Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (<i>ishlar, xizmatlar</i>)	Ochiq ma‘lumotlar portali,	har chorak yakunidan	F.Suyunov, A.Aliyev, A.Turapov,	Sh.Sadikov, D.Yusupov

	(3-4-ilovalar)	rasmiy veb-sayt	keyingi oyning 10-sanasiga qadar	A.Ziyatdinov	
5.	Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (<i>xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlar (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno)</i>) (5-7-ilovalar)	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	F.Suyunov, A.Aliyev, A.Turapov, A.Ziyatdinov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
6.	Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobiga xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (<i>ishlar, xizmatlar</i>) to'g'risidagi ma'lumotlar (<i>xarid e'lon qilinishidan kamida 6 oy oldin</i>) (8-ilova)	Rasmiy veb-sayt	Doimiy ravishda (bir sutkadan kechiktirmay)	F.Suyunov, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
7.	Davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo'yicha tashkil etiladigan xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror hamda komissiya a'zolarining ma'lumotlari (<i>familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi</i>)	Rasmiy veb-sayt	Doimiy ravishda (bir sutkadan kechiktirmay)	F.Suyunov, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
8.	Davlat siri bo'lgan ma'lumotlarning yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning muhofaza qilinishini ta'minlagan holda tegishli o'tkazilgan har bir taftish va tekshiruv (<i>nazorat obyektini nomi, nazorat tadbirining maqsadi va muddatlari, uni o'tkazgan davlat xizmatchisining lavozimi, familiyasi, ismi</i>) to'g'risidagi ma'lumotlar (9-ilova)	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	Sh.Xojiboyev, A.Aliyev, A.Ziyatdinov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
9.	O'zlari aksiyador (<i>ishtirokchi, mulkdor</i>) funksiyalarini bajaruvchi davlat ishtirokidagi korxonalarining ijroiya organi (<i>direktor, boshqaruv</i>)	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorak yakunidan	L.Mirzayev, A.Aliyev, A.Ziyatdinov	Sh.Sadikov, D.Yusupov

	<i>raisi, boshqaruv a'zolari</i>) va kuzatuv kengashi a'zolarining ismi va familiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar (10-ilova)		keyingi oyning 10-sanasiga qadar		
10.	Davlat ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, ushbu korxonalarga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar tasarrufidagi yengil avtomobillar, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar (11-ilova)	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	F.Suyunov, A.Aliyev, A.Turapov, A.Ziyatdinov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
11.	Tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to'g'risidagi va boshqa ma'lumotlar (12-ilova)	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	F.Suyunov, A.Aliyev, A.Turapov, A.Ziyatdinov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
12.	Davlat organlari va tashkilotlari tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar, qurilishi tugallanmagan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar <i>(tezkor-qidiruv, harbiy va boshqa maxsus xizmatlarda foydalaniladigan ashyolar bundan mustasno)</i> (13-14- ilovalar)	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	F.Suyunov, A.Aliyev, A.Turapov, A.Ziyatdinov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
13.	Litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan organlarning hududlar kesimida mas'ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a'zolari <i>(familiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi)</i> to'g'risidagi ma'lumotlar (15-ilova)	Rasmiy veb-sayt, "licence.gov.uz" sayti	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	L.Mirzayev, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
14.	Davlat organlari va tashkilotlari huzuridagi jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma'lumotlari <i>(telefon, pochta va elektron</i>	Rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga	Sh.Tursunbayev, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov

	<i>manzillari) hamda jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar (16-17-illovalar)</i>		qadar		
15.	Tasdiqlangan yarim yillik va (yoki) yillik ish rejalari (<i>davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno</i>) (18-ilova)	Rasmiy veb-sayt	har olti oy yakunidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar	L.Mirzayev, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
16.	Doimiy foydalanish uchun berilgan yer maydonlari va boshqa mol-mulklarni davlat-xususiy sheriklik asosida olgan yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar (19-ilova)	Rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	L.Mirzayev, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
17.	Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralarning tashqi yoki ishonchli boshqaruvga berilgan davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, ishonchli boshqaruvchi tomonidan jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar (20-ilova)	Rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	F.Suyunov, A.Aliyev, D.Dadayeva, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
18.	O'zlarining tarkibiga kiruvchi davlat muassasalarining nomi, faoliyat turi, funktsiya va vakolatlari hamda rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlar (21-ilova)	Rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	L.Mirzayev, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
19.	Davlat budjeti, shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar, shu jumladan istiqbolli investitsiya va infratuzilma loyihalari bo'yicha ularning asosiy texnik ko'rsatkichlari va boshqa loyiha hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar (22-ilova)	Rasmiy veb-sayt	har olti oy yakunidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar	S.Yunusxodjayeva, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov

20.	Davlat organlari va tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi (nizom, reglament, yo'riqnoma yoki boshqa ichki idoraviy hujjat)	Rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	F.Suyunov, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
21.	Bo'sh ish o'rinlari (markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida), ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar (23-ilova)	Rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar	S.Yunusxodjayeva, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov
22.	Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarga taqdim etilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalari haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan g'olib bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlari haqidagi ma'lumotlar (24-ilova)	Rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar	F.Suyunov, Sh.Tursunbayev, A.Aliyev, A.Turapov	Sh.Sadikov, D.Yusupov

**“O‘zarxiv” agentligi o‘z faoliyatiga oid hisobotni e‘lon qilishda
(jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish) hisobotga kiritiladigan
ma‘lumot (axborot)larning
RO‘YXATI**

T/r	Hisobotga kiritilishi lozim bo‘lgan ma‘lumot (axborot) nomi	Hisobotda aks ettirish shakli
1.	Hisobot yilida “O‘zarxiv” agentligi o‘z faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va olib borishda asosiy e‘tibor qaratilgan soha hamda yo‘nalishlar;	Matn shaklida
2.	“O‘zarxiv” agentligi tashabbusi bilan o‘z faoliyati hamda muayyan sohani takomillashtirish (tartibga solish) yuzasidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar, joriy etilgan yangi mexanizmlar hamda ularning ijro holati haqidagi ma‘lumotlar;	Matn shaklida
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Hukumat qarorlari hamda yuqori turuvchi organ topshiriqlarining ijro holati;	Matn va infografika shaklida
4.	“O‘zarxiv” agentligining o‘z faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqadigan sohalar (yo‘nalish) bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar hamda kelgusi istiqbolda bajarilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar;	Matn, infografika va raqamlar shaklida
5.	O‘z faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirishda bajarilgan ishlar, aniqlangan holatlar va ularni oldini olish borasida ko‘rilgan choralar;	Matn va infografika shaklida
6.	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash borasida amalga oshirilgan ishlar (umumiy murojaatlar soni, ularni soha, hudud va yo‘nalishlar kesimidagi ko‘rsatkichlari va boshqa holatlar);	Matn va infografika shaklida
7.	Hisobot yilida davlat budjeti va mahalliy budjet, budjetdan tashqari jamg‘armalar, barcha xomiylik va xalqaro (xorijiy) mablag‘lar hisobidan amalga oshirgan daromad va xarajatlari, shu jumladan xodimlarga to‘langan ish haqi, mukofot va rag‘batlantirish, xarid qilingan tovar (ish va xizmatlar), xizmat safari hamda budjet jarayonining ochiqligini ta‘minlashga oid boshqa ma‘lumotlar;	Matn, infografika va raqamlar shaklida
8.	Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, shu jumladan korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etgan yoki bunga imkon yaratib bergan xodimlarga nisbatan ko‘rilgan choralar;	Matn va raqamlar shaklida
9.	Ochiqlikni ta‘minlash sohasida amalga oshirilgan	Matn, infografika va raqamlar

T/r	Hisobotga kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumot (axborot) nomi	Hisobotda aks ettirish shakli
	ishlar, sohada samaradorlik va natijadorlikni oshirish hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijro holati;	shaklida
10.	Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat loyihalarini amalga oshirish samaradorligi, shu jumladan sohada raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron xizmatlarni joriy etish va rivojlantirish holati;	Matn shaklida
11.	Xodimlarni tanlash, joy joyiga qo'yish, bilim va malakasi shu jumladan, professional ko'nikmalarini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar;	Matn shaklida
12.	"O'zarxiv" agentligi huzuridagi jamoatchilik, maslahat va kollegial organlar faoliyati yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar;	Matn shaklida
13.	Xorijiy mamlakatlarning shu vazifa va funksiyalarni bajaruvchi organlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, tajriba almashish va ilg'or amaliyotni implementatsiya qilish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar;	Matn, infografika va raqamlar shaklida
14.	O'z faoliyatidagi ijobiy va salbiy ahamiyatdagi eng muhim ko'rsatkichlarning oldingi yillardagi ko'rsatkichlarga nisbatan qiyosiy tahlili (o'sish va pasayish dinamikasida);	Matn, infografika va raqamlar shaklida
15.	"O'zarxiv" agentligi o'z faoliyatiga oid hisobotni to'liq va har tomonlama bo'lishini ta'minlaydigan boshqa ma'lumot (axborot)lar.	Matn, infografika va raqamlar shaklida

Izoh:

1. Agentlik har yili 1-martga qadar o'z faoliyatiga oid hisobotni (*davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno*) rasmiy veb-saytidagi alohida sahifada joylashtiradi;

2. Har yili 10-martga qadar hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqida xabar berishlari lozim;

3. Hisobotning matni lo'nda, oddiy va ravon tilda bayon etilishi, shuningdek keng jamoatchilik uchun dolzarb ma'lumotlarni qamrab olingan bo'lishi lozim;

4. Mazkur ro'yxatdagi ma'lumotlar Agentlik uchun hisobot e'lon qilish hajmining yakuniy chegarasini belgilamaydi.

“O‘zarxiv” agentligining 2024-yil
8-fevraldagi 17-son buyrug‘iga
3-ilova

**Amalga oshirilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi
MA’LUMOTLAR**

T/r	Buyurtmac hi STIR raqami	Xarid predmeti (mahsulot, ish, xizmat)	Kategoriyasi	Miqdori (o‘lchov birligi)	Lot raqami	Moliyalasht irish manbai	Yetkazib beruvchi nomi va STIR raqami	Shartnoma raqami va sanasi	Etkazib berish muddati (kun, ish kuni yoki sutka)	Xarid boshlang‘ich qiymati (ming so‘mda)	Xarid amalga oshirilgan qiymat (ming so‘mda)
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Tender											
Eng yaxshi taklifni tanlash											
Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auktsion											
Elektron do‘kon											
Milliy do‘kon											
Ma’lumotlar e’lon qilinayotgan davr bo‘yicha jami:											
Hisobot yilining o‘tgan davri bo‘yicha jami:											

Izoh:

1. Ma’lumotlar moliya yilining (mos davridan kelib chiqib) har bir choragi uchun alohida shakllantirilib (1,2,3 va 4-choraklar qo‘shilganda, jadvalning **“Hisobot yilining o‘tgan davri bo‘yicha jami”** satrida 11-12-ustunlarning ko‘rsatkichlari moliya yili davomida o‘sib boruvchi tartibida kiritiladi), Agentlikning rasmiy veb-sayti va Ochiq ma’lumotlar portalidagi sahifasida joylashtiriladi;

2. Ma’lumotlar amalga oshirilgan har bir davlat xaridlari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshirilgan davlat xaridlari bundan **mustasno**) kesimida, har chorak yakunidan keyingi oyning **o‘ninchi sanasiga qadar** belgilangan axborot resursida joylashtirib borilishi lozim.

“O‘zarxiv” agentligining 2024-yil
8-fevraldagi 17-son buyrug‘iga
4-ilova

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari to‘g‘risidagi
MA’LUMOTLAR**

T/r	Buyurtmac hi STIR raqami	Predmeti (mahsulot, ish, xizmat)	Kategoriya	Miqdori (o‘lchov birligi)	Lot raqami	Moliyalashtiris h manbai	Yetkazib beruvchi nomi va STIR raqami	Etkazib berish muddati (kun, ish kuni yoki sutka)	To‘g‘ridan- to‘g‘ri xarid amalga oshirish asosi	Shartnoma raqami va sanasi	Shartnoma qiymati
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Ma'lumotlar e'lon qilinayotgan davr bo'yicha jami:											
Hisobot yilining o'tgan davri bo'yicha jami:											

Izoh:

1. Ma'lumotlar moliya yilining (mos davridan kelib chiqib) har bir choragi uchun alohida shakllantirilib (1,2,3 va 4-choraklar qo‘shilganda, jadvalning “Hisobot yilining o‘tgan davri bo‘yicha jami” satrida 12-ustunning ko‘rsatkichlari moliya yili davomida o‘sib boruvchi tartibida kiritiladi) Agentlikning rasmiy veb-sayti va Ochiq ma'lumotlar portalidagi sahifasida joylashtiriladi;

2. Ma'lumotlar amalga oshirilgan har bir davlat xaridlari (tender, eng yaxshi taklifni tanlash, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, elektron do‘kon va milliy do‘kon davlat xaridlari bundan mustasno) kesimida har chorak yakunidan keyingi oying o‘ninchi sanasiga qadar belgilangan axborot resursida joylashtirib borilishi lozim.

3. Jadvalning “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid amalga oshirish asosi” ustuniga normativ va boshqa hujjatni qabul qilgan organ, uning raqami va xarid amalga oshirishga asos bo‘lgan bandi ko‘rsatilishi shart.

**Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari xarajatlari to‘g‘risidagi
MA’LUMOTLAR**

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari

T/r	Xizmat safarining qisqacha maqsadi	Xizmat safari amalga oshirilgan hudud	Xizmat safarining davomiylik muddati (sutkada)	Xizmat safarini amalga oshirgan xodimning familiyasi va ismi	Moliyalashtirish manbasi	Jami xarajat	Shundan, xarajat turlari (ming so‘mda)			
							Turar joy bilan bog‘liq (mehmonxona yoki turar joy ijarasi) xarajatlar	Yo‘l xarajatlari	Kundalik xarajatlar	Boshqa xarajatlari
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
<i>(Hisobot yilining ma‘lumotlar e‘lon qilinayotgan choragi)</i>										
Ma‘lumotlar e‘lon qilinayotgan davr bo‘yicha jami:										
Hisobot yilining o‘tgan davri bo‘yicha jami:										

Izoh:

1. Ma‘lumotlar mansabdor shaxslarning **O‘zbekiston Respublikasi hududidagi** xizmat safarlari bilan bog‘liq amalga oshirgan xarajatlar asosida shakllantirilib (1,2,3 va 4-choraklar qo‘shilganda jadvalning **“Hisobot yilining o‘tgan davri bo‘yicha jami”** satrida 7-11-ustunlarning ko‘rsatkichlari moliya yili davomida o‘sib boruvchi tartibida kiritiladi) Agentlikning rasmiy veb-sayti va Ochiq ma‘lumotlar portalidagi sahifasida joylashtiriladi (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma‘lumotlar bundan mustasno);

2. Ma‘lumotlar amalga oshirilgan har bir xizmat safari kesimida, har chorak yakunidan keyingi oyning **o‘ninchi sanasiga qadar** belgilangan axborot resursida joylashtirib borilishi lozim;

3. Xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlar haqidagi ma‘lumotlarga Agentlikning barcha xodimlari tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar kiritiladi.

4. Xizmat safariga yuborilgan xodimga boshqa xarajatlar to‘lab berilgan taqdirda, to‘langan pul mablag‘larining miqdori tegishincha xodimlar kesimida jadvalning 11-ustuniga kiritilib, izohda ularning qisqacha tavsifi (*jamlangan miqdori*) yoritiladi.

“O‘zarxiv” agentligining 2024-yil
8-fevraldagi 17-son buyrug‘iga
6-ilova

**Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari xarajatlari to‘g‘risidagi
MA’LUMOTLAR**

O‘zbekiston Respublikasi tashqarisidagi xizmat safarlari

T/r	Xizmat safarining qisqacha maqsadi	Xizmat safari amalga oshirilgan mamlakat	Xizmat safarining davomiylik muddati	Xizmat safarini amalga oshirgan xodimning familiyasi va ismi	Moliyalashtirish manbasi	Jami xarajat	Shundan, xarajat turlari (ming so‘mda)					
							Sutkalik xarajatlar	Yashash uchun (turar joyi ijarasi bo‘yicha) xarajatlar	Transport xarajatlari	Vakillik xarajatlari	Ko‘zda tutilmagan xarajatlar	Boshqa xarajatlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
<i>(Hisobot yilining ma’lumotlar e’lon qilinayotgan choragi)</i>												
Ma’lumotlar e’lon qilinayotgan davr bo‘yicha jami:												
Hisobot yilining o‘tgan davri bo‘yicha jami:												

Izoh:

1. Ma’lumotlar mansabdor shaxslarning **O‘zbekiston Respublikasi tashqarisidagi** xizmat safarlari bilan bog‘liq amalga oshirgan xarajatlar asosida shakllantirilib (1,2,3 va 4-choraklar qo‘shilganda jadvalning **“Hisobot yilining o‘tgan davri bo‘yicha jami”** satrida 7-13-ustunlarning ko‘rsatkichlari moliya yili davomida o‘sib boruvchi tartibida kiritiladi) Agentlikning rasmiy veb-sayti va Ochiq ma’lumotlar portalidagi sahifasida joylashtiriladi (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno);

2. Ma’lumotlar amalga oshirilgan har bir xizmat safari bo‘yicha alohida tartibda, har chorak yakunidan keyingi oyning **o‘ninchi sanasiga qadar** belgilangan axborot resursida joylashtirilishi hamda moliya yili davomida o‘sib boruvchi tartibida joylashtirib borilishi lozim;

3. Xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlar haqidagi ma’lumotlarga Agentlikning barcha xodimlari tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar kiritiladi.

4. Xizmat safariga yuborilgan xodimga boshqa xarajatlar to‘lab berilgan taqdirda, to‘langan pul mablag‘larining miqdori tegishincha xodimlar kesimida jadvalning 13-ustuniga kiritilib, izohga ularning qisqacha tavsifi (jamlangan miqdori) yoritiladi.

5. Ma’lumotlarning **“xarajat turlari”** qismida mablag‘lar to‘lab berilgan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi bo‘yicha xorijiy valyutaning o‘zbek milliy so‘miga nisbatan belgilangan qiymatida kiritiladi.

Xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari to‘g‘risidagi
MA'LUMOTLAR

T/r	Tashrifning qisqacha maqsadi	Tashrif buyurgan vakillarning mansubligi		Tashrifning umumiy davomiylik muddati	Moliyalashtirish manbasi	Jami xarajat	Shundan, xarajat turlari (ming so‘mda)				
		Mamlakat	Xorijiy tashkilot				Yashash uchun (turar joyni ijarasi bo‘yicha) xarajatlar	Transport xarajatlari	Ovqatlantirish xarajatlari	Sovg‘a xarid qilish uchun xarajatlar	Tashrif bilan bog‘liq boshqa xarajatlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
<i>(Hisobot yilining ma‘lumotlar e‘lon qilinayotgan choragi)</i>											
Ma‘lumotlar e‘lon qilinayotgan davr bo‘yicha jami:											
Hisobot yilining o‘tgan davri bo‘yicha jami:											

Izoh:

